

Falsafa fanlari doktori Sh.Agzamxodjayeva tahriri ostida

МАHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING IJTIMOIY-AXLOQIY VA FALSAFIY G‘OYALARI

Maxsudjonova Aziza Kadamboevna, Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti “Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat” kafedrasi katta o‘qituvchisi

SOCIAL, MORAL AND PHILOSOPHICAL IDEALS OF MAHMUDKHO‘JA BEHBUDI

Makhsudjonova Aziza Kadamboevna, Senior Lecturer, Department of “Social Sciences and Physical Culture”, Tashkent Institute of Textile and Light Industry

СОЦИАЛЬНО-НРАВСТВЕННЫЕ И ФИЛОСОФСКИЕ ИДЕИ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ

Махсуджонова Азиза Кадамбоевна, старший преподаватель кафедры “Общественные науки и физическая культура” Ташкентского института текстильной и легкой промышленности

Annotatsiya: Maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiying ijtimoiy-axloqiy va falsafiy g‘oyalar, uning bugungi kundagi yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi. Mahmudxo‘ja Behbudiyl qalamga olgan barcha sohalar asosida keng qamrovli tarbiya masalalari yotadi, deyish ayni haqiqatni aytishdir. Uning gazeta va jurnallarda chop etilgan “Bizga isloh kerak”, “Haq olinur, berilmas”, “Yoshlarga murojaai”, “Samargandda milliy ishlar haqinda”, “Tahsil oyi” kabi o‘nlab maqolalari XX asr boshlarida Turkistondagi taraqqiy parvar insonlar va ayniqsa, mahalliy yoshlarning diqqat-e’tiborini qozongan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, tarbiya, ota-onal, targ‘ibot, tashviqot, maorif, muktab, milliy axloq, o‘zlikni anglash, ijtimoiy foydali mehnat.

Abstract: The article scientifically substantiates the importance of social, moral and philosophical ideas in the education of youth in modern conditions. In all areas addressed by Mahmudhoja Behbudi, there are issues of comprehensive education - this can be considered the truth. His dozens of articles published in newspapers and magazines, such as «We Need Reforms», «The Truth Is Taken Away, But Not Given Back», «Appeal to the Youth», «On National Affairs in Samarkand», «Month of Education» and others, attracted the attention of progressive people of Turkestan at the beginning of the 20th century and, especially, local youth.

Keywords: youth, education, parents, propaganda, advocacy, enlightenment, school, national ethics, self-awareness, socially beneficial labor.

Аннотация: В статье научно обосновано значение социально-нравственных и философских идей в воспитании молодежи в современных условиях. Во всех сферах, к которым обращался Махмудходжон Бехбуди, лежат вопросы всестороннего воспитания – это можно считать истиной. Его десятки статей, опубликованных в газетах и журналах, такие как «Нам нужны реформы», «Правду отнимают, но не отдают», «Обращение к молодежи», «О национальных делах в Самарканде», «Месяц обучения» и другие, привлекли внимание прогрессивных людей Туркестана начала XX века и, особенно, местной молодежи.

Ключевые слова: молодежь, воспитание, родители, пропаганда, агитация, просвещение, школа, национальная мораль, самосознание, социально полезный труд.



<https://orcid.org/0009-0008-9118-471X>

e-mail:
angelochik86@mail.ru

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Mahmudxo'ja Behbudiyning siyosat va huquq, tarix va geografiya, adabiyot va san'at, iqtisodiyot va din, ilmma'rifat, turmush tarzi va odob-axloqqa doir dolzARB muammolarni aks ettiruvchi maqolalari yangi davr, zamona talabidagi o'qimishli yosh avlodning kamol topishida juda muhim va ishonchli targ'ibot va tashviqot vositalaridan biri hisoblanadi. Ulardagi bosh maqsad maorif, maktab va milliy axloqni yangi o'zanga solish, davr talablari ruhidan kelib chiquvchi nazariya va g'oyalarni ilg'or usullar asosida amaliyatga tatbiq etishdan iborat edi. "Mana shunday damlarda buyuk ma'rifatparvar hazrat Behbudi ijodiy faoliyatining yangi qirralari – yetuk muallimlik qobiliyati va tarbiyachilik mahorati yorqin namoyon bo'ldi. Millat hayoti ta'limtarbiya bilan belgilanadi, - degan marifatparvar, islojni mактаб va madrasalardan boshlash zarur", - degan g'oya bilan chiqdi[1]. Mamudxo'ja Behbudiyning "Padarkash" asarini o'rganish bugungi kunda dolzARB muammolardan birdir.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS).

Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifatparvarlik g'oyalari va falsafasini o'rganishda xorijiy va o'zbek olimlarining bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jadidlar harakatiga oid xorijiy olimlardan E.Olvort, Adib Xolid [2,38-b.], orleanlik professor E.Lazzeri, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida Hoji Ne'matulloh Muhtaram [3,61-b.], N.Xotamov [4, 23-b.], mamlakatimiz olimlaridan jadidchilikka oid Q.Rajabov [5, 26-29-bb.], D.Alimova [6,76-b.], S.Inoyatov, Q.Rajabov [7,54-b.], L.Muxamedjanova, M.Alimova [8,22-b.] va boshqalarning tadqiqotlarida jadid mutafakkirlari ma'naviy merosining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy qarashlari, ularning jadid ma'rifatparvarligidagi alohida o'rni qisman o'rganilgan.

Tadqiqotda tarixiylik, mantiqiylik tamoyillari hamda qiyoslash, analiz va sintez, umumlashtirish va tahlil usullaridan foydalilanilgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).

Mahmudxo'ja Behbudi Turkistondagi siyosiy so'qirlik, huquqiy bilimsizlik, nodonlik, axloqiy noqislikning ayrim jihatlarini xalqning mustamlaka holidan deb bilsa, boshqa jihatlarini avom ommanning a'moli hamda ruhiyatiga chuqur o'rashib qolgan sarqit va illatlarda deb bildi. Behbudi rahnamoligidagi jadid ziyoilari o'lka xalqini milliy istiqlol yo'lidan ishonch va

sabot bilan yetaklash, millatga o'zligini anglatish uchun unga savod o'rgatish, keng ma'nodagi ma'rifatlilikni singdirishni o'zlarining ziyolilik majburiyati, insoniylik burchi deb bildilar. Ular ommani, xususan, mahalliy yoshlarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish, savodini chiqarish, umumiylar va kasbiy bilimlarini oshirish, ko'nikma va malakalarini chuqurlashtirishga butun kuch va qudratini, bilim va mahoratini, iroda va quntini sarfladilar. Jadid ziyoilari, jumladan, Behbudi ham mahalliy yoshlarni yangi tashkil etilgan maktablarda zamona viy bilimlarga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish maqsadida o'quvchilar uchun bir qator yangi darslik, qo'llanmalar yaratdilar. Bunda o'quvchi yoshlarning savodlilik darajalari, ruhiy tayyorgarliklari va qiziqishlariga alohida e'tibor qaratildi.

Behbudi va uning safdoshlari mustaqillik uchun kurashning dastlabki va zaruriy bosqichi sifatida o'lka aholisini, xususan, yoshlarni jaholatdan qutqarish, ma'rifat bilan "qurollantirish" yo'lini tanladilar. Ilm, ma'rifat orqali millatdoshlarida milliy ongni shakllantirishga, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini tarbiyalashga zo'r berdilar. Behbudi yoshlarni yangi tarixiy davr talablariga javob bera oladigan avlod bo'lib shakllanishini, eng avvalo, ota-bobolari tomonidan boy berilgan erk va hurriyatni, Vatanni qaytarib olishni maqsad qilgan yoshlarni tarbiyalashga katta e'tibor berish zarur, deb hisobladi. U yosh avlodni nafaqat har tomonlama bilimli, madaniyatli, balki diniy qadriyatlarga sodiq muslim bo'lishini ham istadi. Uningcha, islam diniga sadoqat yoshlarning o'z milliy xususiyatlarini, o'zligini saqlab qolishlarida qalqon vazifasini o'tashi lozim edi. Behbudi yoshlarning "ibridoiy tarbiya" siga ahamiyat beribgina qolmadidi, balki davlat dumasiga a'zo, sud idoralarida advokat bo'lib, o'z xalqining milliy manfaatlarini himoya qila biladigan kishilarni, fan va madaniyat, xalq xo'jaligining barcha sohalari bo'yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash masalasini eng dolzARB masalalar sifatida kun tartibiga qo'ydi.

Behbudi ta'lim-tarbiya jarayoni keng qamrovli va uzoq davom etadigan hodisa ekaniga e'tibor qaratar ekan, bu ozchilikning xohishi va harakati bilan emas, butun bir millatning, uning ziyoilari sa'y-harakati bilan amalga oshiriladigan hodisaligini uqtiradi: "Har millatning ulamosi, ahli qalami, mutafakkiri o'z millatining oyandasini uchun

yo‘l ko‘rsatur, mashvarat berur, millat axloqining islohi uchun masjidlarda pand va nasihat berur, maktab va madrasalarda dunyo va oxiratda kerak ilm va fan, ta’lim berarlar, kitob va gazet ila ummatni muslihi uchun babs va mukolamalar qilurlar”[9,52-b]. Behbudiy ommani, birinchi navbatda, boylarni ogohlikka, millatni himoya qilishga, uning ravnaq topishiga xizmat qilishga, xayr-ehsonga chaqiradi, aks holda buning oxiri xarobdur, deydi: “Yigirma, o‘ttiz sana so‘ngra yana yomonroq bo‘lur, musulmonlik, ilm va odob ila qoim millat axloq, fazl va hunar ila boqiy qolur”[10]. Bilim olish uchun hech narsa to‘sinq bo‘lmasligi kerak, deb yozgan edi Behbudiy. Odamlarga bor-yo‘g‘ingizni, mol-mulkingizni sotadigan bo‘lsangiz, bu pullarni o‘g‘illaringizni Yevropada o‘qitishga sarf qilingiz, deb yo‘riq ko‘rsatadi mutafakkir[11,38-b].

Mahmudho‘ja Behbudiy “Hifzi sihati oila” (“Oila sog‘ligini muhofaza qilish”) nomli maqolasida o‘quvchilarning diqqatini tibbiyot ma’rifati mavzusiga qaratadi. Inson uchun, eng avvalo, zarur bo‘ladigan ilm bu “ilmi badan va hifzi sihatduri”, - deb yozadi u. Behbudiy Qur’oni Karim va hadislarga hamda Gollandiya va Fransiya olimlarining statistik tadqiqotlari natijalariga suyangan holda erta oila qurish va erta nikohga kirishning zarari va oila qurmasdan yurishning, ko‘p xotinlilikning zararlari hamda jinsiy tarbiya asoslari haqida fikr yuritadiki, bu o‘sha davr matbuoti uchun ma’lum ma’noda musulmon axloqiyligidan tashqaridagi mavzu, ko‘nikilmagan yangilik edi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Behbudiy o‘zining butun hayoti davomida eng ko‘p va yuqori darajada e’tibor qaratgan narsa bu mentalitetimizdagи o‘zbekning o‘zligini belgilaydigan qadriyatlarimiz – to‘y va azalarimiz edi. Mahmudxo‘ja “Bizni kemiruvchi illatlar (1915)” nomli maqolasini quyidagi so‘zlar bilan boshlaydi: “Bizni kemiruvchi illatlar deganda, zaxm-u maraznimi guman etarsiz? Yoki... Yo‘q... biz – turkistoniyarlari shahri va qishloqi yoyinki yarim madaniy, yarim vahshiy sinflarimizg‘acha istilo etib, butun tirikligimizg‘a sorilgon va bizni inqirozg‘a va tahlikag‘a va jahannamg‘a yumalataturgon to‘y, azo ismindagi ikki qattol dushmani derman”. Ma’rifatparvar fikrini rivojlantirib, “Tangrimiz...Qur’oni Karimda o‘z qo‘llaringiz ila o‘zingizni tahlikaga otmangiz, der. Biz bo‘lsa, badbaxtona va Xudoning amrig‘a bo‘yun qo‘ymasdan kofirona bir suratda to‘y va azo degan,

yo‘q bo‘lushimizg‘a sabab bo‘lgan odatlarga bor-u yo‘qimizni sarf va isrof etarmiz”. Behbudiy millatdoshlarining bor mol-mulki, eng achinarlisi, qarz-qavolaga botish hisobiga to‘y-azalarni o‘tkazishi barobarida, har turli bo‘lar-bo‘lmas marosimlarga, tadbirlarga oltindan aziz vaqtini ham zoye ketkazishiga afsuslanadi. “Ekin birgina kun keyin sepilgan uchun pishmay qolar. Birgina kun so‘ngra yig‘ilgan uchun yog‘inga qolib, ba’zi xirmanlar chirib ketar, – degan Behbudiy vaqtning qadriga yetishni, tejashni boshqa millatlardan o‘rganishni tavsiya qiladi, – ...yahudiylar ba’zan o‘luklarni oqshom eltid ko‘marlar. Na uchun? Kunduzi ishdan qolarlar. Biz bo‘lsa, o‘luk va to‘y uchun haftalar, hatto, oylar ila ishdan qolurmiz”. Mutafakkir kundalik turmushdan misollar keltirib, oddiy hayot haqiqatlaridan nazariy umumlashmalar chiqarib, millatdoshlarini aql-u farosat bilan ish ko‘rishga undaydi, ogohlilikka chaqiradi: “Samarqandda bir mahalla borki, aksar xalqi faqr-u zaruratdan, to‘g‘risi, aql noqisligidan havlilarini pulg‘a qiziqib yahudiylarg‘a sotgan uchun mahallag‘a oz musulmon qoldi. Mahalla maktabi yo‘q bo‘ldi. Masjidi-da yaqinda yo‘qolur... To‘y va ta’ziyag‘a sarf qilinaturgon oqchalarimizni biz, turoniylar, ilm va din yo‘lig‘a sarf etsak, anqarib ovrupoyilardek taraqqiy etarmiz va o‘zimiz-da, dinimiz-da obro‘y va rivoj topar...”[12,3-4-bb]. Behbudiyning bir asrdan avvalroq aytgan bashoratomuz ehtirosli fikrlari hozirda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Aksincha, eng muhim hayotiy muammolarimizdan biri bo‘lib turibdi. 2019-yil 14-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda Senat Kengashining “To‘ylar, oilaviy tantanalar, maraka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qo‘shma qarori qabul qilinganligi hamda mazkur qaror va u bilan tasdiqlangan nizom 2020-yilning 1-yanvaridan kuchga kirganligi fikrimiz tasdig‘idir[13].

Behbudiyning adabiy tanqid masalalariga bag‘ishlangan “Tanqid saralamoqdur” maqolasi tarbiyalilikning alohida namunasidir. Shunisi ibratki, adibning tarixiy-ilmiy mavzuga bag‘ishlangan barcha maqolalari o‘tmishga kamoli ehtirom va e’tiqod bilan yozilgan. Bu ma’rifatparvarning ruhiyatidagi, tiynatidagi yuksak insoniylikning, ibratli axloqiylikning go‘zal namunasi sifatida namoyon bo‘lishidir. Dog‘istonlik buyuk mutafakkir Rasul Hamzatovning “Sen o‘tmishga

to‘pponcha o‘qtalsang, kelajak seni zambarak bilan otadi”, degan hikmatli iborasini ancha avval donishmand bobomiz kundalik amaliy hayotida qo‘llaganligi timsolidir.

XULOSA (ZAKLYUCHENIE / CONCLUSION). Dramaturgning «Padarkush» dramasi zamona yoshlarining ilm-ma’rifatli, madaniyatli, odob-axloqli bo‘lishi lozimligiga va bunda oila va undagi muhit, birinchi navbatda, otaning oiladagi maqomi, mavqeい benihoya katta ekanligiga alohida ahamiyat qaratiladi. “Behbudiya” kutubxonasi ilm ahlining, ziyolilarning, xususan, mahalliy yoshlarning amaldagi ta‘lim-tarbiya maskani bo‘lganligi ayni haqiqat.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Oyna jurnali, 1913 yil, 1-son.
2. Khalid Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. - Berkeley: University of California Press, 1998.
3. Hoji Ne’matulloh Muhtaram. Tazkirat ush-shuaro. - Dushanbek, 1975, Sah.61.
4. Хотамов Н. Бухарские джадиды и основные этапы их деятельности. - Душанбе, 2000.
5. Rajabov Q. Yosh buxoroliklar // Buxoro mavjlari. 2005. № 2. - B.26-29.
6. Алимова Д.А. Историческое мировоззрение джадидов и их проекция будущего Туркестана // Туркистан мустақиллиги ва бирлиги учун кураш саҳифаларидан. - Тошкент: Фан, 1996.
7. Inoyatov S., Rajabov Q. Buxoro tarixi. - Toshkent: Tafakkur, 2016.
8. Muxamedjanova L., Alimova M. Buxoroda jadidchilik harakati tarixidan. - Buxoro: Durdona, 2019.
9. Naim Karimov. Mahmudxo‘ja Behbudiy. - Toshkent, 2016. - B.52.
10. Samarqand gazetasi, 1913-yil, 30-iyul.
11. Alimova D.A., Rashidova D.A. Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. - Toshkent: Akademiya, 1999. - B. 38.
12. Oyna jurnali, 1915 yil, 13-son. - B. 3-4.
13. To‘ylar, oilaviy tantanalar, maraka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda Senat Kengashining qo‘shma qarori. //Xalq so‘zi gazetasi, 2019-yil 15-sentyabr.

